ISLOMDA ERKINLIKNING IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Tursinkulov N. A.
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islomda erkinlik g‘oyasi axloqiy mas’uliyat va dinlararo bag‘rikenglik bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Tadqiqotda Qur’on, hadis va Islom olimlarining asarlaridan iqtiboslar keltirilib, erkinlikning ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta’minlashdagi ahamiyati yoritiladi. Maqola Islomdagi erkinlikni yangi zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish uchun ilmiy yondashuvni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Islom ta’limoti, erkinlik, diniy erkinlik, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy mas’uliyat, Qur’on, Hadis, Islom falsafasi, bag‘rikenglik, inson huquqlari, Hudaybiya shartnomasi, Islom va G‘arb falsafasi, siyosiy erkinlik, ijtimoiy adolat.

Erkinlik g‘oyasi insoniyat tarixida doimo asosiy qadriyat va bahs-munozaralardan biri bo‘lib kelgan. Hozirgi davrda esa bu masala yanada dolzarblashib, shaxsiy huquqlar, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyat muvozanatini saqlash ehtiyoji ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Islom ta’limoti erkinlikni qanday falsafiy asosda ko‘rib chiqishi va uning zamonaviy jamiyatga ta’siri katta qiziqish uyg‘otadi.

Islom ta’limotida erkinlik inson huquqlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u shaxsiy, diniy va ijtimoiy sohalarda o‘z aksini topadi. Bir tomondan, insonning shaxsiy erkinligi – o‘z fikrini ifoda qilish, xohish-irodasiga ko‘ra harakat qilish imkoniyatini bildirsa, boshqa tomondan, bu erkinlik mas’uliyat va axloqiy tamoyillar bilan chegaralangan. Qur’on oyatlari diniy erkinlikning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Shu bilan birga, Islom erkinlikni faqat individual qadriyat sifatida emas, balki ijtimoiy barqarorlik va adolat uchun muhim vosita sifatida ham ko‘radi.

Erkinlik tushunchasi Islomda nafaqat shaxsiy huquqlar, balki jamiyatning axloqiy va diniy mas’uliyatlari bilan ham bog‘liq. Erkinlikning falsafiy asoslari Qur’on va hadislar, shuningdek, islom mutafakkirlarining asarlarida chuqur yoritilgan.

Qur’on erkinlikni asosiy inson huquqlaridan biri sifatida taqdim etadi. Erkinlikning diniy asoslarini yorituvchi oyatlardan biri Baqara surasining 256-oyati bo‘lib, unda diniy e’tiqodda majburlash yo‘qligi alohida ta’kidlanadi: “Dinga majbur qilish yo‘qdir. Batahqiq, haq botildan ajradi”.[1][1, 263] Islomda erkinlikning asosiy tamoyillari insonning e’tiqod tanlashda erkinligini ta’minlashga qaratilgan. Bu oyat shuni ko‘rsatadiki, Vizantiyadagi odamlar nasroniylikka majbur qilinganida va Forsda diniy islohotchilar dahshatli qiynoqlarga duchor bo‘lganlarida yozilgan. Shu

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1-juz. “HILOL-NASHR”, 2008, 263-b.

bilan birga, Islomda erkinlik printsipi inqiloblar yoki jamiyat rivojlanish bosqichlari bilan birga kelmagan, bu Alloh tomonidan nozil qilingan. Erkinlik, ayniqsa, diniy mas’uliyatlarni bajarish, e’tiqod va ibodatlarni amalga oshirishda eng yuqori darajada hurmat qilinadi. Qur’on erkinlikni insonning huquqlari, xohish-irodasi va e’tiqod tanlashdagi mustaqilligi bilan bog‘laydi.

Qur’oni Karimning erkinlikka doir yana bir jihati – uning ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi rolidir. Islom dinida barcha insonlar teng bo‘lib, erkin va adolatli muomala qilish zarurligi ta’kidlanadi. “Baqara” surasi, 190-oyatda: “Insonlar orasida o‘zaro adolatni ta’minlash zarur”. Bu oyatni tahlil qiladigan bo‘lsak, erkinlikni nafaqat diniy, balki ijtimoiy va siyosiy adolat bilan bog‘laydi.

Erkinlikning siyosiy nuqtai nazari, ayniqsa, Farobiy, Ibn Rushd va G‘azzoliy kabi islom mutafakkirlarining asarlarida aks etdi. Ular erkinlikni faqat shaxsiy huquq sifatida emas, balki jamiyatdagi barqarorlik va adolatni ta’minlashga xizmat qiladigan omil sifatida ko‘rganlar. Ayniqsa, Ibn Rushd o‘z asarlarida erkin fikrlash va ilmiy izlanishlarning ahamiyatini ta’kidladi, bu esa o‘z vaqtida o‘sha davrning siyosiy erkinlik tushunchasiga ta’sir ko‘rsatdi. Ibn Rushd (1126-1198) Islom falsafasida erkinlikka o‘zining aqliy va falsafiy yondashuvini taklif qilgan. U erkinlikni insonning ma’naviy va axloqiy erkinligini ta’minlashda asosan aqliy fikr va ilmga asoslangan holda tushuntiradi. Ibn Rushdning “Al-Muqaddima fi al-falsafa” asarida, erkinlik, insonning aqliy erkinligi va adolat tamoyillari bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. U, ayniqsa, shaxsning erkin fikrlash va o‘z ta’limotlarini tanlash huquqini ilgari suradi: “Insonning erkinligi uning aqliy erkinligida ifodalanadi. Har bir shaxs o‘z ta’limotiga va e’tiqodiga xohlagan tarzda amal qilish huquqiga ega”.[1] Ibn Rushd, erkinlikni aqliy taraqqiyot va ilmiy izlanishlar bilan bog‘lab, shaxsiy erkinlikni o‘zligini anglash va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lish sifatida talqin qiladi. Uning nazarida, erkinlikning o‘zi ijtimoiy barqarorlik va adolatga xizmat qilish zarur.

Imom G‘azzoliy (1058-1111) Islomda erkinlik g‘oyasini axloqiy va diniy mas’uliyatlar nuqtai nazaridan tushuntiradi. U erkinlikni nafaqat shaxsiy huquqlar, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat sifatida ham ko‘radi. “Ihya Ulum al-Din” asarida G‘azzoliy erkinlikning ahamiyatini shunday bayon etadi: “Erkinlik nafaqat insonning xohishiga amal qilishda, balki jamiyatga, axloqiy qadriyatlar va diniy mas’uliyatlarga hurmat ko‘rsatishda ifodalanadi”.[2] G‘azzoliy erkinlikni mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi, bu esa Islomning axloqiy ta’limotlariga mos keladi. U erkinlikni boshqalarni hurmat qilish va jamiyat manfaatlarini ko‘zlash bilan izohlaydi.

Farobiy (872-950) ham Islomda erkinlikni ma’naviy va siyosiy aspektlarda ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, erkinlik insonning intellektual rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq. Farobiy o‘z qarashlarida erkinlik jamiyatdagi adolat va barqarorlikka asoslangan holda tushuntirishga harakat qiladi: “Erkinlik – bu insonning o‘z taqdirini tanlash, lekin bu tanlov adolat va umumiy manfaatlarga asoslanishi kerak”.[3] Farobiy, erkinlikni jamiyatda adolat va barqarorlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan shaxsiy va jamoat erkinligi sifatida tasavvur qiladi. Uning fikricha, erkinlik faqat ijtimoiy adolatga xizmat qilganda haqiqiy ma’noga ega bo‘ladi.

Islomda erkinlik g‘oyasi tarixan rivojlangan va o‘zgarib borgan. Erkinlik tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi, asosan, Islomning dastlabki davrlaridan boshlab, uning jamiyatda va siyosatda qanday rol o‘ynaganiga bog‘liqdir. Bu borada, Islom tarixidagi erkinlik g‘oyasining rivoji va uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Islomning dastlabki davrlarida erkinlik, asosan, diniy erkinlik shaklida namoyon bo‘ldi. Hijrat (622 yil) va Madina davrida erkinlikning shakllanishi, birinchi navbatda, diniy erkinlikka asoslangan bo‘lib, musulmonlar va boshqa diniy guruhlar o‘rtasida diniy e’tiqodni erkin tanlash huquqi ta’minlandi. Madinada Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan ishlab chiqilgan Hudaybiya shartnomasi diniy va siyosiy erkinlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynadi. Hudaybiya shartnomasi islom payg‘ambari Muhammad (s.a.v) davrida sodir bo‘lgan voqea edi. Bu Madina davlati vakili bo‘lgan Muhammad (s.a.v) va Makkadagi Qurayshiy qabilasi o‘rtasida 628-yil yanvarda (Zulqida, 6-hijriy yilga to‘g‘ri keladi) muhim shartnoma edi. Bu ikki shahar o‘rtasidagi keskinlikni

[1] Ibn Rushd, “Al-Muqaddima fi al-falsafa”. Dar al-Maarif, 1986 yil, 127-bet.
[2] Al-G‘azzoliy, "Ihya' Ulum al-Din."Dar al-Kutub al-Ilmiyah, 1999 yil, 215-bet.
[3] Al-Farobiy, "Al-Madina al-Fazila." Dar al-Ma‘arif, 2003 yil, 134-P.

kamaytirishga yordam berdi, 10 yil davomida tinchlikni tasdiqladi va Muhammad (s.a.v) ning izdoshlariga keyingi yil tinch ziyoratda qaytishga ruxsat berdi, keyinchalik bu ziyorat “Birinchi haj” deb nomlandi.[1] Ushbu shartnoma turli qabilalar va diniy guruhlar o‘rtasida erkinlik va adolatni ta’minlashga yordam berdi: “Barcha musulmonlar bir-birlariga yordam berishadi va shartnoma bo‘yicha ko‘rsatmalarga amal qilishadi. Har bir guruh o‘zining diniy e’tiqodiga xohlagan tarzda amal qiladi, ularga hech qanday majburlik qo‘llanilmaydi” deb yozib qo‘yilgan edi. Erkinlikning bu shakli o‘zaro hurmat va diniy tanlash huquqini mustahkamlashga asoslangan edi.

XIX asrda va XX asrning boshlarida, Islomda erkinlik g‘oyasi yangi shakllarda rivojlanishni boshladi. Kolonializm va imperiyalarga qarshi kurashda erkinlik g‘oyasi katta rol o‘ynadi. O‘sha davrda musulmon jamoalari siyosiy va ijtimoiy erkinlik uchun kurashni kuchaytirishdi. Misr, Turkiya, Eron va boshqa musulmon davlatlarida Islomning erkinlik va mustaqillik tushunchalari yangilandi.

Islom ta’limotidagi erkinlik tushunchasi bugungi zamonaviy dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Qur’ondagi erkinlik tushunchasi bugungi kunda inson huquqlari, xususan, e’tiqod erkinligi va ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Qur’oni Karimda shunday deyiladi: “Biz odam bolalarini izzatli qildik va ularni quruqlikda ham, dengizda ham (turli ne’matlarimiz bilan) ta’minladik”[2] (Qur’on, Isro surasi, 70-oyat). Bu oyat insonning izzat-ikromga loyiq ekanini, uning fundamental huquqlari hurmat qilinishi kerakligini ta’kidlaydi.

Erkinlik shunchaki huquq emas, balki axloqiy mas’uliyatdir. Qur’oni Karimda insonning erkinligi har doim mas’uliyat va javobgarlik bilan birga kelishi ta’kidlanadi: “Alloh hech kimni uning toqatidan tashqaridagi narsa bilan mashaqqatlantirmaydi. Inson qilgan (yaxshi) ishi uchun mukofot oladi va qilgan (yomon) ishi uchun jazolanadi”[3] (Qur’on, Baqara surasi, 286-oyat). Bu oyat erkinlikni, ayniqsa shaxsiy erkinlikni, tanlov va uning oqibatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Zamonaviy jamiyatlarda bu prinsiplar erkinlikdan suiiste’mol qilishning oldini olishda asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Zamonaviy huquqshunoslar, masalan, Muhammad Hashim Kamali[4] bu tamoyillarni inson huquqlarining Islomdagi asosiy negizi sifatida e’tirof etgan.

Islom ta’limotidagi diniy erkinlik zamonaviy jamiyatlarda dinlararo muloqot va bag‘rikenglikni rivojlantirish uchun muhim asosdir. Hudaybiya shartnomasi Islomning ilk yillarida musulmonlar va boshqa din vakillari o‘rtasida tinch-totuv yashash tamoyillarini belgilab berdi. Shartnomada shunday deyilgan: “Yahudiylarga o‘z dinlari qoldiriladi, musulmonlarga o‘z dinlari. Har bir taraf o‘z diniga amal qilish erkinligiga ega bo‘ladi”.[5] Bugun esa aynan yahudiylar tomonidan ushbu qoida qo‘pol ravishda buzilyotganini ko‘rishimiz mumkin. Falastindagi musulmonlar masjidlarda ibodat qiloyotgan vaqtida ularga nisbatan shavqatsizlarcha munosabatda bo‘lganiga butun dunyo guvoh. 2023-yil 7-oktabrda boshlangan Isroil va Hamas o‘rtasidagi qurolli mojaro davomida, 2024-yil dekabr oyining oxiriga kelib, halok bo‘lgan falastinliklar soni o‘n minglabni tashkil etadi.

Erkinlik faqat axloqiy yoki diniy erkinlik bilan chegaralanmaydi, balki ilm-fan va izlanish erkinligini ham o‘z ichiga oladi. Ibn Rushd (Averroes) bu haqda shunday deydi: “Bilim olishdagi erkinlik – bu nafaqat insonning huquqi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zaruriy shartdir”.[6] Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiyaning rivoji uchun erkin fikrlash, izlanish va yangilik qilish imkoniyatining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu tamoyillar bugungi kunda xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan dinlararo muloqot va bag‘rikenglikning asosiy falsafiy ildizlari sifatida qayta kashf etilmoqda. YUNESKO ning 2015-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, Islom ta’limoti asosida rivojlantirilgan erkinlik va bag‘rikenglik tamoyillari xalqaro muloqot va tinchlikni mustahkamlashda qo‘llanmoqda.[7]

---

[1] Armstrong, Karen. Muhammad: A Prophet for Our Time. New York: HarperCollins, 2007. 175–181-p.
[2] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz. “HILOL-NASHR”, 2008. 441-b.
[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 1-juz. “HILOL-NASHR”, 2008. 303-b.
[4] The Dignity of Man: An Islamic Perspective, Cambridge: Islamic Texts Society, 2002, 24-p.
[5] Sirat ibn Hisham, Bayrut: Dar al-Maorif, 1992, 135-p
[6] Tahafut at-Tahafut, Bayrut: Dar al-Maorif, 1992, 178-p
[7] Cultural Diversity and Freedom, Parij, 2015, 112-p

Erkinlik faqat individual huquqlar bilan chegaralanmaydi, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta’minlash uchun mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Qur’oni Karimda: “Albatta, Alloh adolat va ehsonni buyuradi...”[1] (Qur’on, Nahl surasi, 90-oyat). Bu oyat erkinlikni adolat va yaxshilik bilan uyg‘unlashtirishni ta’kidlaydi. Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatda erkinlik va mas’uliyatning muvozanatini quyidagicha izohlagan: “Jamiyatdagi erkinlik faqat axloqiy tamoyillar asosida boshqarilgandagina barqaror bo‘la oladi”.[2]

Islomdagi erkinlik tamoyillari zamonaviy demokratik tizimlar bilan uyg‘unlashadi, chunki ular inson huquqlari, erkinlik va adolatni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Muhammad Iqbol o‘zining “Islomda diniy tafakkurni qayta tiklash” asarida shunday deydi: “Islomning asosiy tamoyillari zamonaviy demokratik qadriyatlarning falsafiy ildizlarini tashkil qiladi. Erkinlik va adolat ular orasida markaziy o‘rinda turadi”. Shu bilan birga Muhammad Iqbol erkinlik va qonunning muvozanati haqida fikr yuritib: “erkinlik shunchaki xohlaganingni qilish emas, balki axloqiy tamoyillarga bo‘ysunishdir”,[3] deb alohida ta’kidlaydi.

Islom ta’limoti erkinlikni faqat musulmonlar jamiyati uchun emas, balki global miqyosda universal tamoyil sifatida taqdim etadi. Muhammad Abdulloh Draz o‘zining “Islom: Axloq va Erkinlik” asarida shunday deydi: “Islomning erkinlikka oid tamoyillari har qanday jamiyatda universal qadriyat sifatida qo‘llanishi mumkin”.[4] Bu g‘oya bugungi globalizatsiya sharoitida din va madaniy farqlarga qaramasdan, insoniyatni birlashtiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Islomda erkinlik faqat shaxsiy masala emas, balki jamiyat va dunyo miqyosidagi tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashning muhim omilidir. Zamonaviy xalqaro huquqshunoslar Qur’onning bag‘rikenglik va erkinlik haqidagi oyatlarini tinchlikparvar siyosatning ilhom manbasi sifatida talqin qiladilar.

Islom ta’limotida erkinlik g‘oyasi insonning o‘z huquq va majburiyatlari orasida muvozanatni ta’minlashga asoslangan bo‘lib, axloqiy tamoyillar, ijtimoiy mas’uliyat va diniy bag‘rikenglik kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni beradi: ***birinchidan***, axloqiy asos bo‘yicha erkinlik nafaqat insonning shaxsiy tanlov huquqi, balki mas’uliyatli harakat qilish axloqiy majburiyati sifatida ham talqin etiladi; ***ikkinchidan***, diniy bag‘rikenglik bo‘yicha Qur’on va hadislar dinlararo tinchlikni saqlash uchun erkinlikning muhimligini ta’kidlaydi, bu esa zamonaviy jamiyatlar uchun ham dolzarb masaladir; ***uchinchidan,*** jamiyat va davlat boshqaruvi bo‘yicha Islomda erkinlik ijtimoiy adolat, mas’uliyat va boshqaruvdagi shaffoflikni ta’minlash uchun xizmat qiladi; ***to‘rtinchidan***, zamonaviy ahamiyati esa, erkinlik g‘oyasi hozirgi global muammolar, jumladan, inson huquqlari, diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu mavzu doirasida ilmiy tadqiqotlar davom ettirilishi zarur deb hisoblaymiz, shuning uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Diniy va dunyoviy ta’lim tizimlarida Islomning erkinlikka oid tamoyillari asosida yosh avlodda bag‘rikenglik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilishi lozim.

- Islomdagi erkinlik va mas’uliyat tamoyillari jamiyatda adolatli boshqaruv, fuqarolar huquqlari va gender tengligini ta’minlashda faol qo‘llanilishi zarur.

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, Islomning erkinlikka oid ta’limotlari ommalashtirilib, Islomning mazkur masalalardagi haqiqatini global miqyosda yetkazish maqsadga muvofiqdir.

[1] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. 3-juz. “HILOL-NASHR”, 2008. 369-b.
[2] Madina al-Fozila, Qohira: Dar al-Kutub al-Ilmiya, 1985, 105-p
[3] Iqbol, Reconstruction of Religious Thought in Islam, London: Oxford University Press, 1930, 85-p
[4] Al-Islam: Morality and Freedom, Bayrut: Dar al-Nashr, 1998, 122-p